

## QO'QON UNIVERSITETIGA MUHIM TASHRIFLAR

◀ (Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori Qo'qon universitetida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalari-da belgilangan vazifalar ijrosi bilan tanishdi, universitet professor-o'qituvchilari va il-

miy xodimlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari bilan suhbatda bo'ldi. Suhbatda turli tarixiy yillarda mamlakatimizning iqtisodiy ko'rsatkichlari, mahallalarda-gi aholining ijtimoiy holati, ko'p tarmoqli iqtisodiyot va undagi o'sish sur'atlari tahliliy ochib berildi.



### Yoshlar ishlari agentligi direktori – Qo'qon universitetida

Qo'qon universitetida O'zbekiston Respublikasi **Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning** shahrimiz mahallalari yoshlari, talaba va o'quvchilar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.

Yuzma-yuz suhbatda vaqtincha mehnat bilan band bo'lmagan yoshlarning muammolari eshitildi. Shuningdek, yosh tadbirkor va hunarmandlarning faoliyatlarini boshlashlari hamda kengaytirishlarida uchrayot-

gan to'siqlar o'rganildi.

Qo'qon universitetining bir guruh talabayoshlari ham o'zlarining biznes loyihalari va takliflari bilan Alisher Sa'dullayevga murojaat qildilar. Ularning samarali takliflari davlat dasturlariga kiritilishi va qo'llab-quvvatlanishi ma'lum qilindi.

Yoshlar ishlari agentligi direktorining tashrifi ko'plab yoshlarga imkoniyat eshiklarini ochib, ular bilan kelgusidagi rejalar belgilandi.



### Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlik memorandumini imzolandi

Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini yaratish va ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Maktabgacha ta'lim vaziri o'rinbosari **Maqsud Yuldashev** va universitet rektori Sherzod Mustafakulov o'rtasida kelishuv shartnomasi imzolandi. Memorandum asosida kel-


gusida kelgusida yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish, ularning ta'limga, ilmfanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish kabi keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yish rejalashtirib olindi. Muzokaralarda universitet bazasida "Bolalarni erta rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi" tashkil etish, Qo'qon universitetida maktabgacha ta'lim va menejment yo'nalishlari kesimida kadrlar zahirasi shakllantirishga kelishildi.

### Farg'ona politexnika instituti bilan anglashuv memorandumini imzolandi

Farg'ona politexnika instituti rektori **O'ktam Salomov** va Qo'qon universiteti rektori Sherzod Mustafakulov o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini ham imzolandi.

Memorandumda texnologiyalar va tajribalar almashinuvini rivojlantirish borasidagi

aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiyot, moliya va menejment yo'nalishlarida manfaatli hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan.



## XUSHXABAR

**Qo'qon universiteti huzurida ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash tuzildi.**

Qo'qon universitetida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi raisi-ning "Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy komissiya tuzish to'g'risida"gi qarori asosida universitet huzurida **iqtisodiyot fanlari bo'yicha**

**bo'yicha falsafa doktori (PhD)** ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash tuzildi. Ilmiy kengashga **08.00.15- "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti"** ixtisosligi bo'yicha dissertatsiyalar himoyasini o'tkazishga ruxsat berildi. Kengashning 11 kishidan iborat tarkibi tasdiqlandi. Qo'qon universiteti rektori, professor **Sherzod Mustafakulov** ilmiy kengashni boshqarib boradi.

**"IT-Park" va Qo'qon universiteti o'rtasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi**



O'zbekiston Respublikasi yoshlari o'rtasida startap-ekotizim va ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida **"Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direktoriyasi" MChJ (IT-Park)** va Qo'qon universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Kelgusida grantlar jalb qilgan holda qo'shma loyihalar hamda alohida dasturlarni amalga oshirish bo'yicha o'qituvchi va murabbiylar almashishga kelishib olindi.

Bosh muharrir  
**Sherzod MUSTAFAKULOV**

Matn muharriri  
**Muxtasar Norbayeva**

Sahifalovchi-dizayner  
**Oybek Raximberdiyev**

Fotomuxbir  
**Usmon Ibragimov**

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,  
Turkiston ko'chasi, 28 A-uy

(+998) 91 142-83-66

@press\_ku



# UNIVERSITET Salnomasi



№2

www.kokanduni.uz

HAR CHORAKDA BIR MARTA CHOP ETILADI

2021 yil, 1 aprel

## 2021-YIL YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI

### Qo'qon olimpiadasi

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

Sh. Mirziyoyev

**Uchinchi Renessans sari harakat: buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish baxti**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida eng ko'p takrorlanayotgan so'zlar bu ta'lim, ilm va bilim so'zlaridir. Bu maktabgacha ta'lim bo'ladi-mi, umumta'lim, oliy va undan keyingi ta'lim tizimida ishlayotgan pedagoglar, professor-o'qituvchilar bo'ladi-mi – barcha-barcha uchun o'ziga xos chaqiriqdir.

Davlatimiz rahbarining parlamentga va shu orqali xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida **"Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush**



tarzini qaror toptirish ilmfan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", deya qayd etildi. Murojaatnomada shuningdek, aniq fanlarni rivojlantirish, yoshlarni bilimga, ilmga va inno-

vatorlik g'oyalarini yaratishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borasida ham juda yaxshi g'oyalar o'rta tashlangan. Universitet bu borada o'z oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'ydi.

(Davomi 2-3-betda). >>>

## QO'QON UNIVERSITETIGA MUHIM TASHRIFLAR



**Qo'qon universitetiga Bosh vazir o'rinbosarining tashrifi bo'lib o'tdi**

Universitetga Bosh vazir o'rinbosari **Behzod Musayev** tashrif buyurdi. Bosh vazir o'rinbosari kelajakda tashkil etiladigan oliy ta'lim muassasalari uchun mazkur dargoh namuna vazifasini o'tashi, har bir davlat OTM rektorlari uchun ham kelib o'rganadigan o'ziga xos jihatlari mavjudligini e'tirof etdi.

### Akademikdan iqtisodiyot saboqlari

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Saidahror Gulomovning** universitetga tashrifi bo'lib o'tdi. Universitet professor-o'qituvchilari Akademikdan



chi va ilmiy xodimlarning malakasi oshirildi.

Treningda **"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"**da oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalar xususida so'z bordi. Ishtirokchilar iqtisodchi olimning ma'ruzalari orqali

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari va huquqiy asoslari, **"Raqamli O'zbekiston – 2030"** milliy strategisi-

ning afzalliklari va kelgusidagi tendensiyalar yuzasidan bilimlarga ega bo'ldilar.



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektorining tashrifi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori, i.f.d., professor **Adxam Bekmurodov** universitetga tashrif buyurdi.

(Davomi 4-betda). >>>

# UCHINCHI RENESSANS SARI HARAKAT: BUYUK AJDODLARIMIZGA MUNOSIB AVLOD BO'LISH BAXTI

## Qo'qon universiteti – “Qo'qon olimpiadasi” tashabbuskori

Xususan, aniq fanlarni rivojlantirishga oid takliflarini amaliyotga keng tatbiq etish, iqtidorli o'quvchi-yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida universitetimizda respublika umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida matematika fanidan “Qo'qon olimpiadasi” tashkil etildi. Bu borada “Qorako'l ziyo” nodavlat ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda barcha zarur chora-tadbirlar ko'rildi.

Mazkur Qo'qon olimpiadasi xususiy sektor vakillari tomonidan ilk marotaba tashkil etildi. Buning zamiyida kela-jakda yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarish maqsad qilingan. Qo'laversa, O'zbekistonni xalqaro



Zero, mamlakatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston”ni barpo etish bo'yicha qilgan chaqiriqlari, ya'ni “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi”, degan ezgu

## Olimpiada tantanali ochildi!

2021 yil 13-14 mart kunlari “Bilim insonni ulug'laydi”, degan shior ostida “Qo'qon olimpiadasi” yuqori saviyada o'tkazildi.

Yosh matematiklarning ushbu belashuvda Respublikamizning barcha umumta'lim maktablari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan hamda xususiy maktablarning 5-6-7-sinf, 8-9-sinf va 10-11-sinf, akademik litseylarning 1-2-kurs o'quvchilari katta qiziqish bilan faol ishtirok etdilar.

Respublika bosqichiga qadar tuman-shahar bosqichlarida 60 ming nafarga yaqin va hududiy (viloyat) bosqichida 6100 nafar o'quvchi Davlat test mar-

umumiy hisobda jami 350 nafarga yaqin nomzod respublika bosqichida ishtirok etdi.

Ushbu olimpiadaning farqli jihatlaridan biri – ishtirokchi-

## Al Xorazmiy avlodi

*Bildik, inson ruhiga tandan boshqasi bekor,  
Ruhi yuksak kishiga sha'ndan boshqasi bekor.  
Siz buyuk ajdodlarning munosib avlodisiz,  
Shul bois sizga ilm-u fandan boshqasi bekor.  
Al Xorazmiy avlodi yuzingizda nur porlar,  
Keling, Xo'qandi latif sizni bag'riga chorlar.*

*Ilm istab dunyoning to'rt yog'iga chopgaysiz,  
Ma'rifat deb jaholat eshiklarin yopgaysiz.  
Oson yashamoq sizga butunlay yot begona,  
Murakkab misollarning yechimini topgaysiz.  
Yo'lingizga gul sochib sizni kutar bahorlar,  
Keling, Xo'qandi latif sizni bag'riga chorlar.*

*Hisob unum bergaydir umrning har oniga,  
Parvoz uchun shaylaning al jabr osmoniga.  
Bo'lib, qo'shib, ayirib, ko'paytirib sonlarni,  
Ega bo'ling noldan to cheksizlik imkoniga.  
Matematik bo'lgaydir omadi, baxti borlar,  
Keling, Xo'qandi latif sizni bag'riga chorlar.*

*Siz sabab fayz kirar dunyo qiyofasiga,  
Olam larzaga kelar tafakkurning sasiga.  
Aql idrokni charxlab zafar quching doimo,  
Xush kelibsizlar Qo'qon olimpiadasiga.  
Madhingiz kuylamoqqa yozdik mana ash'orlar,  
Keling, Xo'qandi latif sizni bag'riga chorlar.*

larga berilgan har bir top-

shiriq va masalaning eng to'g'ri va zamonaviy yechish usullari ham taqdim etildi. Har bir ishtirokchiga qaysi topshiriqda qanday xatoliklarga yo'l qo'ygalarini bilib olish imkoniyati ham yaratildi. Bu o'z navbatida, barcha sinov jarayon-

larining yanada shaffof va ochiq-oshkoralik ruhida o'tishi, ishtirokchi-nomzodlar va ularning yaqinlarida olimpiada natijalariga shubha uyg'onmasligiga xizmat qildi. Ota-onalar, matematika fani o'qituvchilari uchun videokuzatuv vositalari orqali imtihonlar jarayonini kuzatish imkoniyati yaratildi.

Markaziy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillariga ham olimpiadaning barcha bosqichlarini bevosita kuzatish va axborotlarni keng ommaga yetkazib borish imkoniyati yaratib berildi.

O'quvchi-nomzodlar, ularning ota-onalari, ustozlari va barcha mehmonlar uchun Qo'qon shahridagi tarixiy va madaniy obidalar, xususan Qo'qon madaniyati va tarixi muzeyi joylashgan Xudoyorxon O'rda saroyiga mazmunli sayohat tashkil etildi.

Olimpiada kunlari madaniy ko'ngilochar dasturlar, matematikaga oid sahna ko'rinishlari, san'atkorlarning chiqishlari va kechki sayr bilan mazmunli o'tkazildi.

## G'OLIBLAR TANTANALI TAQDIRLANDILAR

Hakamlar hay'ati xulosalariga ko'ra, “Qo'qon Olimpiadasi”da 5-6-7-sinflar o'quvchilari o'rtasida birinchi o'rinni

guruh – 5-6-7-sinflar, ikkinchi guruh – 8-9-sinflar va uchinchi guruh – 10-11-sinflar bo'yicha 2 va 3-o'rinni qo'lga kiritgan g'oliblarga qimmatbaho sovg'alarga hadya etildi.



olgan Toshkent shahridagi Muhammad Al-Xorazmiy maktabi o'quvchisi **Asilbek Sunatov “Nexia-R3”** avtomashinasi bilan taqdirlandi. 8-9-sinflar o'quvchilari o'rtasida 1-o'rinni egallagan Buxoro viloyatidagi Xalqaro matematika maktabi o'quvchisi **Anvar-**

Shuningdek, barcha guruhlar bo'yicha birinchi 10 talik ro'yxatdan joy olgan nomzodlarga Qo'qon universitetida grant asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha Investitsion vaucher taqdim etildi.

“Qorako'l ziyo” nodavlat o'quv muassasasi tomonidan guruhlar bo'yicha eng yuqori ballni qo'lga kiritgan o'n nafar o'quvchi-nomzodga matematika va boshqa fanlardan qo'shimcha bilim olish bo'yicha bir yillik bepul o'qish Sertifikati topshirildi.

Ishtirokchilarning har biriga Olimpiadada qatnashganligi uchun sertifikatlar taqdim qilindi.

Shuningdek, Qo'qon universiteti rahbariyati yoshlarning bilim, ilm va innovatorlik g'oyalarini yaratishga qiziqishlarini oshirish, iqtidorli o'quvchilarning yutuqlarini keng targ'ib qilish maqsadida **Toshkent, Xorazm va Buxoro** kabi hududlarga safarlar uyushtirib, olimpiada g'oliblarining maktabdoshlari ishtirokida uchrashuvlar tashkil etishdi. Tadbirlarda g'olib o'quvchilarga o'z mukofotlari – avtomobillar tantanali ravishda topshirildi.

Ushbu olimpiada talantli yoshlarni qidirib topish, ularning iqtidorini jamiyat rivoji yo'lida safarbar etish, investitsion motivatsiya asosida yosh matematiklarning seleksiyasini amalga oshirish, matematik bilimlarini sinovdan o'tkazish, nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olishlariga ko'maklashish va shu asosda texnik taraqqiyotning jadalashishiga zamin yaratishga xizmat qildi.

Yoshlarning bilimga, ilmga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga qaratilgan “Qo'qon olimpiadasi” har jihatdan uyushqoqlik bilan yuqori saviyada tashkil etildi.



hamjamiyat orasida, xususan, ilm-fan olamida o'ziga xos nufuzini oshirishga xizmat qiladigan talantli yoshlarni kashf qilish ham ko'zda tutilgan.

g'oyalarini amalga oshirish barchamizning, jumladan, ta'lim tizimiga daxldor bo'lgan har qanday odamning burchi hisoblanadi.



**bek Rahmatov “Nexia-R3”** va 10-11-sinflar o'rtasida Xorazm viloyati, Xiva shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi **Sarvar Soporboyev “Cobalt”** avtomobillari sovrindori deb topildilar.

Barcha guruhlar, ya'ni birinchi

